



**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ҚИШЛОҚ ВА СУВ ХЎЖАЛИГИ
ВАЗИРЛИГИ**

САМАРҚАНД ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИК ИНСТИТУТИ

*«Агрокимё, тупроқшунослик ва ўсимликларни ҳимоя қилиш»
кафедраси*

*5410300 – Ўсимликлар ҳимояси ва
карантини таълим йўналиши
бакалавриат битирувчиси*

АСАДОВ ДЖАМШИД КОМИЛОВИЧНИНГ

МАЛАКАВИЙ БИТИРУВ ИШИ

**Олма қурти (*Carposarsa pomonella* L) ва унга қарши
кураш чоралари самарадорлиги**



Илмий раҳбар, катта ўқитувчи _____ С.И.Аҳмедов

*Малакавий битирув иши Агрокимё,
тупроқшунослик ва ўсимликларни
ҳимоя қилиш кафедраси йигилиши-
да муҳокама қилинди ва ДАК ҳимоя-
сига тавсия этилди. Кафедра мудири,
профессор _____ Ф.Ҳ.Ҳошимов
«___» _____ 2015 йил
Баённома № _____*

*Агрономия факултети
декани, доцент*

_____ Д.С.Нормуродов

«___» _____ 2015 й

САМАРҚАНД-2015



«Агрокимё, тупрокшунослик ва ўсимликларни ҳимоя қилиш»
кафедрасининг _____ - сонли мажлис

БАЁНИДАН КЎЧИРМА

«__»_май_ 2015 йил

Самарқанд шаҳри

Қатнашдилар: Ф.Ҳошимов – кафедра мудири, профессор, П.Узоқов – кафедра профессори, М.Ҳайитов – кафедра доценти, Б.Абдуллаев - кафедра доценти, Т.Ортиқов - кафедра доценти, Э. Умурзоқов - к.х.ф.доктори, С.Аҳмедов - кафедра катта ўқитувчиси, О.Назаров – кафедра катта ўқитувчиси, М.Машрабов - кафедра ассистенти, А.Садинов - кафедра ассистенти, Ш.Ҳазратқулов - кафедра ассистенти, А. Худойкулов- кафедра ассистенти, О. Пўлатов - кафедра ассистенти, Л.Сонамян - кафедра лаборанти, М. Ғуломова-кафедра лаборанти, ҳамда кундузги бўлимнинг кафедрада малакавий битирув иши бажарган 57 нафар талабаси.

Кун тартиби:

Кундузги бўлим битирувчиси Асадов Джемшид Комиловичнинг «Олма қурти (*Carpocapsa pomonella* L) ва унга қарши кураш чоралари самарадорлиги» мавзусидаги малакавий битирув иши муҳокамаси.

Сўзга чиқди:

Кафедра мудири, профессор Ф.Ҳошимов Ўзбекистон Республикаси ОЎМТВ нинг 9.06.2010 йил 225 сонли буйруғи билан тасдиқланган «Олий ўқув юртлари бакалаврларининг малакавий битирув иши» тўғрисидаги низомига асосан ҳар бир малакавий битирув иши кафедрада муҳокама қилингандан кейин ДАК ҳимоясига тавсия етилиши кераклигини айтиб ўтди. Кафедрада кундузги бўлим битирувчиси Асадов Джемшид Комиловичнинг «Олма қурти (*Carpocapsa pomonella* L) ва унга қарши кураш чоралари самарадорлиги» мавзусидаги малакавий битирув иши муҳокамасини эшитамиз.

Шундан сўнг Асадов Джемшид Комилович ўз малакавий битирув иши мавзусини долзарблигини, аҳамиятини, илмий янгилигини, олинган натижаларни ва қилинган хулосаларни маъруза қилди.

Маърузачига мавзу юзасидан 4 та савол берилди, у берилган саволларга жавоб берди.

Муҳокамада Ф.Ҳошимов, П. Узоқов, Т. Ортиқов, С. Аҳмедов ва Б. Абдуллаевлар иштирок этдилар.

ҚАРОР ҚИЛИНДИ:

1. Кундузги бўлим битирувчиси Асадов Джемшид Комиловичнинг «Олма қурти (*Carpocapsa pomonella* L) ва унга қарши кураш чоралари самарадорлиги» мавзусидаги малакавий битирув иши барча кўрсаткичлари бўйича ДАК талабларига жавоб бериши инobatга олинди, у ДАК да ҳимоя қилиш учун тавсия этилсин.

Мажлис раиси, профессор

Ф.Ҳошимов

Котиба

М.Ғуломова

MUNDARIJA

KIRISH.....	
I. Olma bog'larini parvarishlash texnologiyasi.....	
1.1. Tuproqni ishlash.....	
1.2. Mevali daraxtlarni kesish va ularga shakl berish.....	
II. Olma qurtining bioekologiyasi va hayot kechirishi.....	
2.1. Ta'rifi.....	
2.2. Hayot kechirishi.....	
2.3. Qarshi kurash choralari.....	
III. Olma qurtiga qarshi kurashda insektisidlarning samaradorligi.....	
3.1. Olma qurtiga qarshi insektisidlarning biologik samaradorligi.....	
VII. HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI VA EKOLOGIK MUAMMOLAR	
Xulosa va takliflar.....	
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	
Ilovalar (internet ma'lumotlari).....	

KIRISH

BMT ma'lumotlariga ko'ra har yili qishloq xo'jalik ekinlarini uchdan bir qismi zararli organizmlar tomonidan nobud bo'lishi aniqlangan. Bu ko'rsatkich rivojlanayotgan mamlakatlarda 50-60 % ni tashkil etsa, rivojlangan mamlakatlarda 10-15% ni tashkil etadi. Bugungi kunga kelib, qishloq xo'jalik ekinlari zararkunandalarga qarshi kurash usullari agrotexnik, biologik, kimyoviy va karantin tadbirlari bo'lib, bular ichida kimyoviy kurash usullarini qo'llash o'zining soddaligi va tez samara berishi bilan ajralib turadi. Shu bilan birga bu usul har doim ijobiy samara bermaydi, chunki hozirgi kunda 350 turdan ortiq turdagi zararkunandalar kimyoviy preparatlarga u yoki bu darajada rezistentlik hosil qilgandir.

Qishloq xo'jalik ekinlarida 80 mingdan ortiq turdagi zararkunandalar mavjud bo'lib, ulardan 10 mingdan ortiq turlari o'simliklarda jiddiy iqtisodiy zarar yetkazadi.

Ana shunday zararkunandalardan ko'pchiligi mevali bog'larning kemiruvchi zararkunandalari bo'lib hisoblanadi.

O'zbekiston hukumati va I.A.Karimov qishloq xo'jaligini hamma sohalarini shu jumladan bog'dorchilikni rivojlantirishga ham katta e'tibor berib kelmoqdalar. Yaqin yillar ichida bog'dorchilik oldida bog'larni hosildorligini oshirish, aholini ta'minlash uchun mevalarni yetishtirishni ko'paytirish, xomashyo bilan qayta ishlovchi sanoatni ta'minlash va yuqori sifatli mahsulotni chetga chiqarish vazifalari, qo'yilgan.

Ammo keyingi yillarda bir qancha zararkunandalar va kasalliklar bog'larda jiddiy zarar keltirmoqda. Ayniqsa mevali

bog'larimizning asosiy qismini tashkil etayotgan olma daraxtlarida olma qurtini zarari beqiyosdir. Qarshi kurashilmaganda 70-95% mevalar ayniqsa kechki olma navlari mevalari kuchli darajada zararlanadi.

Zararlangan mevalar chirydi, to'kiladi, sifati buziladi, qish mavsumiga saqlash uchun yaroqsiz bo'lib qoladi. Respublikamizda barcha guruhdagi xo'jaliklardagi bog'lar maydoni 2009 yilda 198,9 ming ga, qishloq xo'jalik korxonalarida 57,1 ming gani tashkil etib, meva turlarining hosildorligi keyingi 5 yil ichida barcha guruhdagi xo'jaliklarda 59,4 s/ga qishloq xo'jalik korxonalarida esa 34,1 s/ga qolgan xo'jaliklarda esa 46,4 s/ga ni tashkil etmoqda. (Xo'jayev O. 2010).

R.Shreder nomidagi bog'dorchilik, Olmachilik va vinochilik ilmiy tekshirish instituti va o'z UNOFTF ma'lumotlariga 2008 yilga qaraganda hosildorlikni past bo'lishiga asosiy sabab zararkunandalar va kasalliklarga qarshi kurash olib borilmasligi, kurash muddatlarini, usullarini hamda texnologiyasini qo'pol ravishda buzilishidir.

Aksincha keyingi yillarda mevali bog'larning, xususan olmaning olma qurti bilan zararlanishi ortib bormoqda. Buning asosiy sabablaridan biri kechki kuz yoki erta bahorda profilaktik kimyoviy ishlovlar o'tkazilmasligi, olma qurti kapalagini feromon tutqichlar Moldovodan keltirilmasligi hamda hududlar bo'yicha aniq bashoratning noaniqligidir.

Ushbu malakaviy bitiruv ishimiz Respublikamizda olma qurti zarari, ekologiyasi va unga qarshi qo'llanilayotgan insektisidlarning samaradorligiga bag'ishlangan bo'lib, ish adabiyotlaridan foydalanilgan holda referativ shaklda bajarildi.

I.BOB.

Olma bog'larini parvarishlash texnologiyasi.

Bog'larda tuproqning unumdorligini doimo yaxshilab borilishi kerak. Daraxtlarda to'g'ri shakl berish va qirqish bilan birga tuproqqa yetarli darajada organik va mineral o'g'itlar solib turish, yerga o'z vaqtida va yuqori sifatli ishlov berish, o'simlik va materiallarni zararkunandalar hamda kasalliklardan saqlash, yilning hamma faslida tuproqni yetarli namlikda bo'lishini ta'minlanishlariga alohida e'tibor berish lozim. Hosil berayotgan bog'larda zaminini yaxshi saqlashning asosiy tartibi bu yerni bahorda (h hech narsa ekmay) yaxshi o'g'itlab shudgorlab qo'yishdir.

Shu bilan birga organik o'g'itlarni ko'pi bilan har 3 yilda bir marotaba chirindi sifatida gektariga 20-25 tonnadan solish kerak. Bunday o'g'itlar yetishmasa 2-3 yilda bir marotaba qator oralariga ko'kat o'g'it bo'ladigan ekinlar ekiladi.

Ularni sentyabr oyi oxirida ekib, gullash paytida may oyining boshlarida yerga haydab yuboriladi.

Ko'k poyaning tuproq ostiga yaxshi tushishi uchun ekin yer haydash oldidan KFR-1.5 rotasion o'rim mashinasi bilan maydalab chiqiladi.

Har yili kuzgi shudgor o'rniga noyabr oyida 15-17 sm chuqurlikda qilinadigan kultivasiya bo'lishi mumkin. Faqat yerga organik o'g'it solinsagina u plug bilan 20-22 sm chuqurlikda haydaladi. Erta bahorda qator oralari qayta yumshatiladi, hamda bu ish yoz bo'yi har bir sug'orishdan keyin takrorlanadi.

Ushbu tadbir yerga ishlov beruvchi MPB-1 mashina KShU-03 kultivasiya bilan amalga oshiriladi. Daraxt tanasida yaqin joylarga (10-12 sm dan chuqur bo'lmagan) ishlov berish uchun G'A-76 mexanik frezadan foydalaniladi.

Daraxtlar sust o'sayotgan bo'lsa (30-40 sm dan kam) o'g'itni 1m² joyga 40-60 gr. hisobida bevosita ularning tanasi yaqiniga solish kerak.

Daraxtlar kattalashgan sayin ularning tanasi atrofi doirasi kengayib boradi.

1.1. Tuproqni ishlash.

Farg'ona vodiysida suvni ushlash qobiliyati kam bo'lgan shag'alli yerlarida tuproqning to'yinishi va unda organik moddalarning ko'payishi uchun sharoit yaratish kerak, bu yerlarda no'xatning turli navlarini kuzda ko'k o'g'it uchun ekib (ekish normasiga 100-120 kg), gullash paytida diskali mola bilan maydalab shudgor qilish yaxshi natija beradi.

Tog' va tog' yonbag'ri zonalarida tuproq nurashining oldini olishda daraxtlarning qator oralariga ishlov berish tartibi muhim ahamiyatga ega yon bag'irlarning qiyaligiga qarab yerga turli usulda ishlov beriladi.

Masalan 5-8⁰ ga qiya bo'lgan yon bag'irliklarda daraxt tanasi atrofidagi yerni shudgor holda qator oralarini suv yuvib ketmasligi uchun har xil o't ekilgan holda saqlash kerak.

Qiyaligi ortiqroq yon bag'irlarda qator oralar haydaladi va yana shunday o'tlar ekiladi. Daraxt tanalarining atrofi hamma vaqt shudgor holida saqlanadi.

Pillapoyalashtirilgan tog' yon bag'irlarida o'tlarni yashil o'g'it uchun ekish yaxshi natija beradi. Tuproq qanday holda saqlanmasin pillapoya qiyalik (berma) lariga har xil o'tlar ekish maqsadga muvofiqdir. Shunda tuproq nurashining oldi olinadi. Daraxt tanasi atrofidagi yangi bo'lgan o't o'simliklarni maydalab tuproqqa aralashtirib uning suvga va issiqlik rejimini yaxshilaydi, mikrobiologik faoliyatini oshiradi, tuproqni nurashdan asraydi. Daraxtlar to'la hosilga kiringach bu usul to'xtatiladi. Lalmikor yerlardagi hosilga kirgan bog'larda tuproq, asosan yaxshi o'g'itlanib, shudgor holida saqlanadi, yil rostlanib siderat ekinlar ekiladi.

Kuzgi shudgorning eng yaxshi payti daraxtlarning aktiv hayot faoliyati to'xtagan oktyabr va noyabr oylaridir. Bu muddatdan oldin shudgor qilinsa ildizlar zararlanishi bu bilan qo'shimcha haydash chuqurligi ildizlarning joylashishiga qarab belgilanadi. Odatdagi sug'oriladigan bog' yerlarda daraxtning tanasi atrofidagi yer 15-18 sm, qator oralarida 25-30 sm shag'alli yerlarda esa 10-15 sm chuqurlikda shudgorlanadi.

Shunda esa joylashgan ildizlarga shikast yetmaydi. Bahor-yoz oylarida qator oralaridagi yerlar tuproqning suv-havo tartibini yaxshilash va begona o'tlarni yo'qotish uchun 10-12 sm chuqurlikda yumshatiladi. Bahorda tuproqning yetilishi imkon bergan paytda va yozda ham yumshatiladi: bahorda tuproqning yetilishi bilan va yozda har bir sug'orishdan keyin MRV-1 moslamani T-54V, MRV-30, T-70 traktorlariga tirkab 12-14 sm chuqurligida yumshatiladi. Hosilga kirgan yerni 2-3 yilda bir marotaba oktyabr, noyabr oylarida yoki erta bahorda fevral oyining oxiri yoki mart oyida fosforli va kaliy o'g'it gektariga

R₈₀-K₉₀ kg solib, 45-50 sm chuqurlikda ag'darmasdan haydab yumshatish kerak.

Begona o'tlarga qarshi bahor oylarida daraxtning tanasi atrofini simazin bilan gektariga 4-6 kg, prometrin gektariga 4-6 kg, korogort gektariga 5-7 kg hisobida dorilash lozim. Lalmikor yerdagi bog'da kuzda yer 35-40 sm chuqurlikda shudgor qilinadi, bahorda yomg'ir yoqqandan keyin (2-3 marotaba) yengil yumshatiladi. Yomg'irlar to'xtagach yerga kuzgacha ishlov berilmaydi, hosil berayotgan bog'da haydash chuqurligi 25 sm kamaytiriladi. O'g'itlash 2-3 yilda bir marotaba go'ng (gektarga 20-40 t) har yili mineral o'g'it gektariga 120 kg azot, 50 kg fosfor, 30 kg kaliy sof holda solinadi.

Go'ng bo'lsa o'g'itlar miqdori 30-40 % kamaytiriladi. N yilda bir marotaba, fosfor va kaliy (gektariga R₈₀-K₉₀ kg sof holda) o'g'it solib yer chuqur (40-45 sm) shudgor qilinadi. Fosfor va kaliy o'g'itlari va go'ng kuzgi shudgor oldidan solinadi, azot o'g'itini daraxt gullashidan 2-3 hafta oldin gektariga 120 kg (sof holda) miqdorida 20-25 sm chuqurlikda solinadi. Tuproq ostida shag'allikdan iborat bo'lgan yerlarda o'g'itlar miqdori 50% ko'paytiriladi, azot uch marotaba bahorda, iyun va iyul oylarida solinadi.

Yil davomida 800-1000 mm yog'in tushadigan tog' zonalarida dengiz sathidan 800-1200 m balandlikda o'g'itlar qo'yidagi tartibda solinadi. Kuzda (oktyabr-noyabr oylarida) har gektar yerga azotning umumiy miqdorining 30-40 % ammofos bilan sulfat ammoniy sifatida, kaliyning 30-40 kg fosforning 60-70 kg sof organik o'g'it bilan birgalikda azot o'g'itning qolgan qismi (60-70 %) bahor oylarida (mart-aprel) 10-12 sm

chuqurlikda solinadi. Organik-mineral o'g'itlarning mana shu muddatlarda solinishi ularning yog'inlar tarkibida tuproqqa tez singishini ta'minlaydi.

O'g'itlar yerga ROU-5, YaRI-05, MRV-1, KYa, K-5, RT-4 mashinalari yordamida solinadi. Daraxtlar ekilgan ba'zi yerlarda solinadigan mineral o'g'itlarning taxminiy normasi quyidagilardir: azot gektariga 130 kg, fosfor 90 kg, kaliy 45 kg. Azot o'g'iti ikki marotaba aprel va iyun oylarida go'ng 100% miqdorida, fosfor va kaliy kuzda va iyul oyida 50 % dan solinadi. Bu yozning ikkinchi yarmida hosil kurtaklarining shakllanishiga hamda daraxtning qishga yaxshi tayyorgarlik ko'rishiga yordam beradi, yer haydalgan bo'lsa markazdan qochiradigan NRU-0.5 sochuvchi osma mexanizm bilan sepiladi. Fosfor va kaliy o'g'itlarini yerga chuqurroq 20-22 sm qilib solish uchun MRV-1 mashinasidan foydalaniladi.

Bog' shaltoq, parranda axlati bilan oziqlantirilsa yaxshi samara beradi. Bu o'g'it 5-6 hissa suv qo'shib bir tekisda suyultirilib solinadi yoki suv ular solib qo'yilgan chuqur orqali oqiziladi. Yer osti suvlari yaqin bo'lgan bo'z tuproqli o'tloq yerlarda yozgi va kuzgi sug'orish 3-4 hissa qisqartiriladi, suv normasi gektariga 550-600 m³ ga kamaytiriladi, chirindi va azotga boy tuproqni oddiy shox-shabbalari, yumaloq tupli bog'ning gektariga 135 kg azot, 90 kg fosfor, 45 kg kaliy solinadi. Sug'orish hosil beruvchi bog'larda qishki suvlari noyabr oyidan mart oyi oxirigacha 2-3 marta va gektariga 1500-2000 kubometr hisobida beriladi.

Qator oralarini sug'orish uchun 70-80 sm uzoqlikda 22-24 sm chuqurlikda ariq ochiladi. Suv 24-36 soat davomida yer

yaxshi zaxlanguncha shildiratib oqizib qo'yiladi. Yozda sug'orish miqdori daraxtlarning yoshiga, yer osti suvining sathiga, qator oralarida yetishtirilayotgan ekinlarga bog'liq bo'ladi, bog' sug'oriladigan bo'z yerlarda o'simlikning o'sish davrida 4 -6 marotaba, shag'alli yerlarga 10-12 marotaba sug'oriladi. Sug'orish normasi qator oralarining holatiga qarab 600-700, shag'alli yerlarda gektariga 300-500 m³ dan iborat bo'ladi.

Hosil beruvchi baland bo'yli bog'da har bir qator oralig'ida 5-6 qator qilib olingan ariqlar orqali sug'oriladi. Vegetasiya davrida yer osti qatlami chuqur bo'lgan qator bo'z yerlarda bog' yoz paytida gektariga 800-850 m³ normasida 4-5 marotaba, kuz (sentyabr-oktyabr) gektariga 450-500 m³ normasida 1-2 marotaba sug'oriladi. Qishki nam to'plash suvi esa gektariga 1500-1700 m³ normasida bir marotaba dekabr oyida beriladi. Bog' mana shunday tartibda sug'oriladi, o'rtacha gektariga 600-6500 m³ suv sarf bo'ladi.

Sug'orish ariqlari qator oralarida daraxtlar qatoridan 80-90 sm masofada olinadi. Ariqlar oralig'i ham shunday uzoqlikda bo'ladi. Yer osti shag'al bo'lgan, shuningdek yengil va qumoq tuproqli yerlarda vegetasiya suvlari oddiy bog'larda gektariga 400-450 m³ normasidagi suv 8-10 marotaba yetkaziladi.

Shuningdek, gektariga 500-600 m³ normasida 2-3 marotaba qishki yaxob suvi beriladi. Yer osti shag'al bo'lgan yerlarda mineral o'g'itlar oz-oz miqdorda tez-tez solinishi kerak. Chunki, aks holda, sug'orish paytida mineral o'g'itlar yuvilib yerning quruq qatlamida tushib ketadi. Bu yerlarda organik-mineral o'g'itlar ayniqsa yaxshi samara beradi. Yerning nam saqlash va hosildorlik xususiyatini oshiradi. O'g'itning taxminiy yillik

normasi quyidagicha : go'ng gektariga 20 kg, azot 120 kg, fosfor 50 kg, mineral o'g'itlar solinsa, azot gektariga 240, fosfor 120, kaliy 30 kg barcha hollarda azot ikki uch marotaba – aprel va iyul oylarida barobar miqdorda, fosfor va kaliy 50 % dan kuzda iyul-iyul oylarida solinadi.

1.2. Mevali daraxtlarni kesish va ularga shakl berish.

Kuchli o'sadigan o'rta holda o'sadigan payvandlikka ular o'stirilgan meva daraxtlarida shakl berishning tartibi bu (qavatli) qilib siyraklashtirishdir. Respublikamizda olma va noklarning ko'pchilik navlariga nisbatan shu usul qo'llanadi. To'la shakl berilgan meva daraxtlari birinchi qavatda 5-7 dona asosiy shoxga ega bo'lishi kerak. Ularni shakllantirish bilan bir qatorda ikkinchi va uchinchi qator shoxlari ham qoldiriladi. Ikkinchi qavatning birinchi shoxi asosiy shoxlaridan 30-40 sm, ikkinchi shox birinchi shoxdan 25-30 sm masofada qoldiriladi. Uchinchi qavat shoxlari ham shu tartibda qoldiriladi. 3-4 yil shakl berilgan yosh daraxtlarni ko'p butash tavsiya etilmaydi, chunki bu ularni o'sishini kuchaytirib yuboradi. Olmalar to'liq hosilga kirgunga qadar shoxlarini o'rtacha qisqartirib va sikraklashtirib shakl beriladi. Bu davr boshlanishida bir-biriga soya va xalaqit beradigan hamma shox va novdalar olib tashlanadi, daraxt shox-shabbasi sharoitida siyraklashtiriladi. Olma to'la hosil bera boshlagandan keyin uni o'sishini va hosildorligini saqlab turish uchun me'yorida butaladi. Bunda faqat mayda shox-shabbasini qalinlashtirib yuborishi mumkin bo'lgan novdalar va bachkilar

olib tashlanadi. Ba'zi yonlaridan o'sib chiqqan uzun novdalar, ularni hosil shoxiga aylantirish uchun qisqartiriladi. Haddan tashqari yirik shoxlar ularni boshqa shoxlariga tenglashtirish uchun qisqartirib turiladi.

Daraxtlar o'sishdan orqada qolsa (10-15 sm) bir yillik novdalarning normal o'sishini ta'minlash uchun 3-5 yoshli yaxshi o'sgan ona shoxlariga taqab kesiladi.

Daraxt hosil qilmagan yilda butash sistemasi quyidagicha bo'ladi: shu yili o'sib chiqqan novdalar ko'proq kaltalashtiriladi, xalqasimon meva shoxlari siyraklashtirilib, murakkab xalqasimon novdalar kaltalashtiriladi. Natijada bir yillik novdalarning o'sishi tezlashadi, hosil kurtaklarning shakllanishi sustlashadi. Daraxt hosil bergan yili, agar yillararo hosil beradigan daraxt butalmagan bo'lsa, bu ishni hosil bergan yili qilish kerak.

Bunday holatda novdalar 35-40 sm o'sgan eski shoxlariga taqab kesiladi. Hosil kurtaklarni ko'plab shakllantirish uchun o'sgan bir yillik novdalar qisqartiriladi.

Shu bilan bir paytda daraxtlarni oziqlantirib va suv bilan ta'minlash sharoitini yaxshilash kerak.

Daraxt hosil bermaydigan yilda kuzda solingan o'g'itlar (25-30 tonna go'ng, 60 kg fosfor va 30 kg kaliy) bilan birga may oyining oxiri va iyul oyining boshida azot (gektariga 120 kg) o'g'iti solinadi. Chunki bu paytda azot hosil kurtaklarining ko'payishida unga ta'sir etmaydi. Iyul oyida esa azotning gektariga 60-120 kg miqdorda solish kerak.

Daraxtlar hosil beradigan mart oyida azot gektariga 240 kg miqdorida solinadi. May oyida novdalarning yaxshi o'sishi, barglarning fiziologik faoliyati va mevalar rivojlanishi

kuchaytirish maqsadida oziqlantirish uchun gektariga 60-120 kg miqdorida azot o'g'it solinadi, iyul oyida mevalarning yaxshi shakllanishi hosil kurtaklarining paydo bo'lishi, daraxtda qish o'tishida hosil bo'ladigan juda ko'p plastik moddalar zahirasi uchun ikkinchi qo'shimcha oziqa beriladi. (azot 60 kg, fosfor 30 kg).

Noklarni kesish xuddi olmalarni kesishga o'xshashdir. Shuningdek navlar xususiyatini ham e'tiborga olish kerak. Kam shoxlaydigan, ammo bir yillik novdalarni tez o'sgan va asosiy xalqali meva shoxlari ko'p bo'lgan navlarning ularning uzunligiga qarab yarmi yoki uchdan biri kesib tashlanadi, ko'p shoxlaydigan asosan chiviq novdalarida hosil beradigan daraxtlarni shox-shabbalarni siyraklashtiradi.

Behi daraxtiga olma daraxtga berilgandek siyraklashtirilgan shakl beriladi. Daraxt ko'p yillik shoxlarini shakllarining bir biriga moslashtirib kesish kerak, o'tkir burchakli bo'lib qolishiga yo'l qo'ymaslik kerak. Daraxt to'la hosilga kirgach, novdalarining o'sishi keskin kamayadi va meva berish kalta shoxlariga o'tadi. Bu davrda hosil shoxlarning haddan tashqari ko'payib ketishining oldini olish uchun pastroq joylashgan hosilli shoxga taqab shox qisqartirib kesiladi. O'sish sustlashgan chog'da (oxirgi novdalar 25-30 sm dan qisqa bo'lsa) 3-4 yilda bir marotaba 2-3 yillik shoxlarga taqab shox-shabbalarini yoshartirib kallaklanadi.

Daraxt kesiklari 3 sm dan katta bo'lsa, kesib albatta bog' mahalliy (konifol, asalari mumi) yoki buyoq bilan bo'yaladi. Bu tadbir daraxtni qorason tushishidan saqlaydi. Danakli meva daraxtlari ko'pincha bir yoshda hosilga kiradi, eskiroq shoxlarda

shoxlangan shox novdalari esa urug'lariga nisbatan uncha ko'p yashamaydi, natijada shoxlar uchi tezda kurtakka aylanadi.

Bunga yo'l qo'ymaslik uchun butash yo'li bilan har yili ko'plab bir yillik novdalar o'sib chiqishi va ularni shoxlar orasiga to'g'ri joylashtirib, hosil berishiga erishish zarur.

Shoxlar butalganda bir yillik novdalar soni ko'payadi va agar yorug'da joylashgan bo'lsa meva shakllanishiga ko'maklashadi.

II.BOB.

Olma qurtining bioekologiyasi, hayot kechirishi va zarari.

Markaziy Osiyoda olma qurti urug'li meva daraxtlarining ayniqsa olma, qisman esa behining asosiy zararkunandasidan bo'lib, olma va nok hosilining taxminan 50 % ga olma qurti zarar yetkazadi (Nevskiy). Har yili olma qurtining zararlanishidan mevalarning tugunchalar va ho'l mevalarning anchagina qismi to'kilib ketadi. Olma qurti tushgan mevalar ko'pincha- irib ketadi va ularni saqlab bo'lmaydi.

Tarqalishi: Olma qurti olma o'sadigan joylarning deyarli hammasida uchraydi. U butun Yevropada (Shimoldan tashqari), Kavkaz, Markaziy Osiyo, Qozog'iston, G'arbiy Sibir, Afg'oniston, Eron, Turkiya. Shimoliy Afrika, Avstraliya va Zelandiyada uchraydi.

Olma qurtining olma navlarining pishishi muddatlari bo'yicha zarari

(M.Razzoqov va boshqalar, 2006)

1-jadval

t/r	Olma navlari guruhlari	Qarshi kurashilma gandagi hosildorlik s/ga	Agrotexnik kurash olib borilgandagi hosildorlik, s/ga	Kimyoviy kurash olib borilgandagi hosildorlik, s/ga	Agrotexnik va kimyoviy kurash olib borilgandagi hosildorlik, s/ga
1	Ertapishar	58	64	82	96
2	O'rtapishar	91	86	112	125
3	Kechpishar	82	120	154	165

Toshkent viloyati tekislik hududlarida olma qurtining rivojlanishi fenologiyasi

(X.X.Kimsanboyev va boshqalar, 2005 y)

2 jadval

Avlo	yanvar			fevral			mart			Aprel			may			iyun			iyul			avgust			sentyabr			oktyabr			noyabr			dekabr		
	1	2	3	1	2	3	1	2	3	1	2	3	1	2	3	1	2	3	1	2	3	1	2	3	1	2	3	1	2	3	1	2	3	1	2	3
I	-	-	-	-	-	-	-	-	-	0	0																									
II	-												+	0	0	-	-	-	-	0	-															
III																			+	0	-	-	-	-	-	-										
IV																									+	0	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-

Shartli belgilar:

- qurti

0- g'umbagi

+ yetuk kapalak

- tuxumi

2.1. Ta'rifi.

Kapalagining kattaligi qanotlarini yozganda 1,5-2 sm keladi, oldingi qanotlari kulrang bo'lib, asosiy qismi va uchi qoramtir; oldingi qanotlari to'liqsimon, qoramtirroq jilvalidir; tashqi chetida bittadan to'q qo'ng'ir rangli dog'i bo'ladi, uning tilla tUSDagi yaltiroq hoshiyasi bor.

Orqa qanotlari och qo'ng'ir tusli, qanotlarining tashqi chekkasida kalta, qoramtir popugi bo'ladi. G'umbagi 10-12 mm uzunlikda, jigar rang, qornining 2-7 sigmentlarida, orqa tomonida ikki qatordan tikanlari ko'rinadi, 8-9 sigmentlarda va qorin uchida bir qatordan uzunroq tikanlari bor. G'umbak yumshoq pilla ichida turadi, bu pillaning o'rganan pillasi orasida aksari qurt kemirgan po'stloq parchalari bo'ladi.

Voyaga yetmagan qurtining uzunligi 18 mm ga yetadi: usti pushti, pastsi sarg'ish; yosh qurt oq bo'ladi, qurt tanasida tukli mayda och kulrang dog'lari bor. Qurtning boshi va ensa usti och qo'ng'ir yoki qizg'ish tusda bo'ladi. Tuxumi odatda 1.5 mm, yumaloq yassilangan, oqimtir bo'ladi.

2.2. Hayot kechirishi

Olma qurti pilla o'rab g'umbakka aylanishga tayyorlangan qurtlik stadiyasida qishlaydi. Qaysi daraxt po'stlog'i ostida yashagan bo'lsa, daraxt po'stlog'i ostida va qisman xazon orasida yaqin joydagi imoratlar, bog' asbob uskunalari, yashiklar meva omborlarini teshik yoriqlarida, daraxtlar tagidagi tuproq qavatida yoki tuproq donalari ostida qishlaydi. Erta ko'klamda havo

harorati 8-9°S dan pasaymaydigan bo'lib qolgach qurtlar g'umbakka aylanadi va olma gullagan vaqtida g'umbakdan kapalaklar chiqa boshlaydi.

Qorong'u tushganda asosan daraxt uchida qo'nadi. Urg'ochisi havo harorati 16 °S dan kam bo'lmagan vaqtda olma, behi va nok shobbasining odatda yuqori qismidagi barg va tugunchalariga tuxum qo'yadi. Toshkent



atrofidagi kuzatishlarga qaraganda (Korsakova), daraxtlarning zararlanishi yuqori qismida 48% ga, o'rta qismida 32 % da va pastki qismiga 20% ga to'g'ri keladi. Kapalagi umrida bir necha (o'rta hisob bilan 50 ta) tuxum qo'yadi. Tuxumdan chiqqan qurtlar mevaning ichidagi urug'lari bilan oziqlanadi. Qurtlarning 60-80% mevaga kosachasidan, qolgan qismi mevaning yon va pastki yuzasidan kiradi. Qurt meva ostiga kirib meva etidan kamera ochadi va uning ichida bir necha vaqt oziqlanib turadi, so'ngra qurt urug' uyasining ostidagi tomir ildizi orqali urug' kamerasiga o'tadi. U meva sirtidan tomir uziladi. O'tishda burama kanal ochiladi. Har bir qurt ikki uchta ho'l mevaga zarar yetkazadi. Zararlangan ho'l mevalar to'kilib ketadi: kechroq (yirik mevalarga) tushganda esa 70 % qurt faqat bittadan mevaga zarar yetkazadi: olma qurtining rivojlanishi olma to'kilgandan keyin tugaydi. O'sgan qurt mevedan chiqib g'umbakka aylanish uchun pastki shoxlarining asosida yoki daraxt tanasiga o'rmalab boradi: olmaning qurt tekkan joyi ko'pincha irib ketadi; qurtning olma ichiga kirgan teshigi esa po'kak bo'lib qoladi.

Hosilni terib yig'ib olganda meva ichida qolgan qurtlarning ko'pchiligi meva saqlanadigan joyda g'umbakka aylanish uchun meva ichidan chiqadi.



Markaziy Osiyoda olma qurti yoz bo'yi uch nasl beradi. Ikkinchi nasl iyunda, uchinchi nasl iyul avgustda paydo bo'ladi. Birinchi va ikkinchi nasllarning ba'zi bir qurtlari pilla o'ragandan keyin diapauzada kiradi va kelgusi yili ko'klamdagina g'umbakka aylanadi. Shunday qilib, olma qurtining zotlari uning ba'zilari ikki nasl va hatto bir nasl beradi.

Toshkent atroflarida olma qurtlarining 5% iyunda, 16% iyul-avgust boshlarida, 60% avgustning taxminan o'rtalarida va 85 % avgust oxirlarida diapauzaga kiradi.

Ba'zi entomologlarning taxminiga qaraganda olma qurtining ikkita mustaqil biologik irqi: yiliga bir va ikki-uch nasl beradigan irqlari shu bilan birga shimoliy mintaqalarda yiliga bir nasl beradigan irqi bor. G'umbaklardan kapalak chiqishi va tuxum qo'yish uzoqqa cho'zilganidan yozda olma qurtining barcha stadiyalari barobar uchraydi;

Ammo har qanday vaqtda har muayyan bir stadiya baribir ustun bo'ladi va qishgacha g'umbakka aylanishga tayyorlangan qurtlarga qoladi. Xullas tuxumning rivojlanishi haroratga qarab 5-15 kun davom etadi. Mevalardagi qurtlar 18-40 kun (o'rta hisob bilan 24 kun) yashaydi. Shu davrda qurt 5 yoshni o'taydi. Qurt mevaning urug' kamerasida to'lishib ichida qolsa, maxsus kamera ochadi. Mevadan chiqqan qurt 2-8 kundan keyin (o'rta hisob bilan 4 kundan keyin) g'umbakka aylanadi. G'umbaklik stadiyasi ko'klamda va yoz boshlarida o'rta hisob bilan 10 kun iyul-avgustda esa 8 kun davom etadi

2.3. Qarshi kurash choralari.

Qishlayotgan olma qurtini yo'q qilish uchun erta ko'klamda daraxtlarning tanasi nobud bo'lgan po'stloq tangachalaridan tozalanadi va chiqqan axlat darhol kuydiriladi. Daraxtlarning tozalash uchun ishlatiladigan asboblari, narvonlar, shuningdek saralash binolari va meva saqlanadigan joylar qaynoq suv bilan yoki kimyoviy usulda dezinfeksiya qilinadi. Meva saqlanadigan binolarga kapalaklar kirmasligi uchun derazalarga va ventilyasiya teshiklariga doka yoki ba'zan 2,5 mm dan oshmaydigan sim to'rt tutish tavsiya etiladi. Ularga pashsha tutadigan yopishqoq qog'oz osib qo'yish ham mumkin.

May o'rtalarida birinchi nasl qurtlari tuxumdan chiqib pilla o'rash uchun daraxtlarning tanasiga va pastki yo'g'on shoxlarining asosiga tusha boshlaganda daraxt tanalariga tutish belbog'lari bog'lanadi, ular meva terib olgungacha daraxtlarda qoldiriladi va kamida 10 kunda bir marta ko'zdan kechirib turiladi. Belbog'da kirib turgan qurtlar ezib tashlanadi yoki belbog'lar qaynoq suv solingan idishga botirib olinadi, va sovigandan keyin yana avvalgi joyiga bog'lanadi.

Belbog'lar siyrak tekshirilgan taqdirda unga kirib olgan qurtlarning bir qismi kapalakka aylanib oladi.

Toshkent atroflaridagi kuzatishlarga qaraganda (Shaposhnikova, Nevskiy) qurtlarning 93% tutish belbog'lari bilan tutib olib yo'q qilish mumkin. Eski qop va boshqa materiallardan eni 10-15 sm li belbog'lar ikki buklanib bog'lab qo'yiladi.

Ba'zan poxoldan belbog' qilsa ham bo'ladi. Belbog' bog'lanadigan joylardagi po'stloq tangachalari tozalab olinadi. Tushish belbog'chalari kontakt dorilari bilan zararlansa, ularga tushgan qurtlar o'ladi. Bunday belbog'larni mavsumning boshidan oxirigacha tekshirishning hojati yo'q, ular o'z-o'zidan o'ldiruvchi yoki avtosid belbog'lar deb ataladi. O'zbekiston o'simliklarni himoya qilish ilmiy tadqiqot instituti va akademik R.R.Shreder nomidagi bog'dorchilik va Olmachilik instituti, o'z-o'zidan o'ldiruvchi belbog'larni, toifasining 10 foizli suvli suspenziyasi yoki 30 % li tiofos konsentratining 2,5% li suspenziyasi shimdirilgan qoplardan tayyorlashni tavsiya etadi (belbog'larning ichki yuzasiga tiofos dusti sepish ham mumkin);

Tojikiston meva-tokchilik va sabzavot xo'jaligi ilmiy tekshirish institutining so'nggi vaqtda o'tkazgan tajribalariga qaraganda yopishqoq mineral moylar bilan zaharlangan belbog'lar esa faqat pastdagi dag'al, yoshi 20 dan oshgan daraxt tanasiga bevosita bog'lanadi; daraxtlarga zaharli moddalar zarar yetkazmasligi uchun pastdagi joylashgan daraxtlarga avaylab surib 12-15 sm kenglikda joy hosil qiladi. Bunda har bir daraxtga 0,7 l gacha eritma suriladi. Bu usul akademik R.R.Shreder nomidagi bog'dorchilik va Olmachilik ilmiy tekshirish instituti tomonidan o'tkazilgan tajribalarida yaxshi natija berdi. Tekshirib turilmaydigan va zararkunanda parazitlarni halok qilmaydigan doimiy belbog'lar juda qulaydir.

Keng miqyosida ishlatilmaydigan bu belbog'lar ko'zi 2,5 mm keladigan simto'rdan yasaladi: simto'r buklanib, 10-15 sm kenglikdagi naycha hosil qiladi: bu naychanning chetlari bir-biridan oshib o'tgan bo'lishi kerak, naychanning chetlari daraxt

tanasida taqaladi va uchlari bir necha marta bukiladi: ichiga buklangan qog'oz payraxa, latta va qurtlarni g'umbakka aylanish uchun jalb qiladigan shu kabi materiallar solinadi. Qurtlar belbog'larga kirib oladi, kapalaklari esa belbog'dan chiqolmaydi: qurt va g'umbak parazitlari bunday to'rdan bemalol o'tib ketaveradi. Pishmay to'kilayotgan olma, behi va olxo'rini kamida 1-3 kunda terib bog'dagi olma qurtlarining 25 foizini yo'qotish mumkin. (Aristatov).

Kalsiy arsenat o'rniga pari j ko'ki degan dori ishlatish mumkin. (11 suvga 1,0-1,5 pari j ko'ki va 2-3 g so'ndirilmasdan ohak solinadi), ammo yog'ingarchilik davrida bu zahar olma daraxtlarini kuydirib qo'yadi; shu sababli olma qurtiga qarshi birinchi dorilashda bu zaharni ishlatib bo'lmaydi. So'nggi paytda olma qurtining har bir naslini yo'q qilish uchun daraxtlarga 1 marta dori purkash tavsiya etiladi:

Bu vaqtda qurtlarning ko'pchiligi mevada kosachasidan kirib oladi: shuning uchun insektisidlar gul kosasiga kirishgacha erishmoq kerak. Olma gullagandan keyin gul kosachasi 10 kungacha turadi, shu kunlar ichida daraxtlarga dori purkaladi. Undan keyin ikkinchi va uchinchi nasllarning kapalaklari yoppasiga va tuxum quyadigan davrda Shimoliy O'zbekistonda iyun va iyul o'rtalarida dori purkaladi. O'zbekiston o'simliklarni himoya qilish instituti ikkinchi va uchinchi dorilash muddatlarini aniqlash uchun meteorologik ma'lumotlarga amal qilishi tavsiya etadi. Ko'klamda 9 °S dan ortiq o'rtacha sutkalik haroratning 190 °S ga ning yig'indisi to'plangan kundan boshlab, olma qurtining birinchi nasli o'sa boshlaydi, shu kundan boshlab meteorologik stansiya ma'lumotlari asosida havoning o'rtacha sutkalik harorati

kun sayin hisoblab turiladi, bu harorat kvadratga oshiriladi va kvadratlar 24000 °S yig'indini hosil qilguncha qo'shilaveradi. Shu vaqtda ikkinchi naslning kapalaklari ucha boshlaydi va daraxtlar ikkinchi marta dorilanadi; yana harorat kvadratlarning 24000 °S lik yig'indisi hosil bo'lgach uchinchi nasl kapalaklari uchadi. Shu davrda daraxtlar 4 marta dorilanadi (Glushkov). O'zbekistonda qurtlarning ikkinchi nasli olma gullagandan 50 kundan keyin, uchinchi nasli esa 95 kundan keyin paydo bo'ladi.

Olma qurtining kapalaklari bir muncha uzoq vaqt uchadi va birinchi nasl qarshi yaxshi kurash olib borilganda uchinchi nasl juda kam bo'ladi.

Markaziy Osiyoning mevazor bog'larida olma qurtining birinchi va ikkinchi nasliga qarshi ikki marta dori sepiladi.

Yosh daraxtlarda ozgina zararkunanda bo'lsa, birinchi nasliga qarshi bir marta va ikkinchi naslga qarshi ikki marta (hammasi bo'lib uch marta) dori purkaladi. Dori birinchi marta olma gullagandan keyin dastlabki o'n kun ichida purkaladi. Ikkinchi marta birinchi dorilashdan 10 kun keyin, uchinchi marta iyun o'rtalarida, to'rtinchi marta uchinchi dorilashdan o'n kun keyin purkaladi. Faqat uch marta dorilangandagina ikkinchi marta dori purkalmaydi. Behi daraxtlariga olma qurtining birinchi nasli zarar yetkazmaydi, shuning uchun behidagi olma qurtlari 2 va 3 naslda yo'q qilib boriladi.

Dori so'nggi marta yig'im-terimga kamida 20 kun qolganda purkaladi. Olma qurti mevaga gul kosasidan emas, uning boshqa qismlaridan ham kira oladi. Modomiki shunday ekan, mevaning hamma yeriga insektisid bir xilda yuqishi kerak.

Ayni vaqtda shox-shabbaning pastki va o'rta qismlarigina emas yuqori qismlari ham sinchiklab dorilanishi shart. Dori daraxtlarning yoshiga va hosil miqdoriga qarab turli miqdorda purkaladi. 25 yashar olma daraxtlari uchun gektariga 2500-3600 l suyuqlik sarflanadi. Markaziy Osiyoda olma qurtiga qarshi biologik kurash olib bormoq uchun tuxumxo'r trixogrammaning va unga qon-qarindosh turlarining parazitlarining sinab ko'rish yaxshi natija bermaydi, chunki laboratoriya sharoitida ko'paytirilgan trixogrammaning faolligi tez kamayib ketadi, shuningdek yozda havo yetarlicha nam bo'lmaydi.

III. BOB.

Olma qurtiga qarshi kurashda insektisidlarning samaradorligi.

Respublikamizda qolaversa jahon mevachiligida olma qurtiga qarshi kurash usullarini bir necha turi ishlab chiqilgan. Bular agrotexnik, kimyoviy mexanik, biologik va boshqalardir. Ammo keyingi yillarda rivojlangan mamlakatlarda genetik usullar yordamida transgen olma navlari yaratilib ular olma qurti bilan umuman zararlanmaydi.

Biroq ekologik toza mahsulot ishlab chiqarish nuqtai-nazardan sog'liqni saqlash tashkilotlari ko'pgina mamlakatlarda transgen o'simliklardan olingan mahsulotlarni ta'qiqlab qo'ygan. Boshqa kurash usullari, masalan agrotexnik, biologik mexanik usullarga nisbatan kimyoviy usul ancha samarali ham qulaydir. O'simliklarni himoya qilish sohasi tarixida qator yillar davomida ko'plab insektisidlar olma qurtiga qarshi qo'llanilgan, sinalgan, joriy etilgan hamda vaqt o'tishi bilan ta'qiqlangandir.

Masalan sevin insektisidi 1960-1990 yillar davomida olma qurtiga qarshi keng kurashishda ishlatilgan. Ammo uning kamchiligi shundaki, olma qurtining 1 chi avlodiga qarshi qo'llanilganda yosh, endi guldan chiqqan g'o'ra mevalarni 10-25% ini to'kib yuborishi aniqlangan. Bir vaqtlar ko'p ishlatilgan DDT va GXSG insektisidlarini mevada qolganligi uchun o'sha 1960-1965 yillardayoq ta'qiqlangan edi.

**Hozirgi vaqtda esa R.R.Shreder nomli bog'dorchilik,
Olmachilik va vinochilik ilmiy tekshirish instituti olimlari
olma qurtiga qarshi quyidagi kimyoviy preparatlarni tavsiya
etmoqda (M.Mirzayev va boshq.2006 y).**

3-jadval

Zararkunanda	Preparat nomi	Sarflash me'yori	Purkash muddatlari
Olma qurti	Karate-5%	0.4-0.8	1-chi aprel oxiri
	Nurel-D-55%	1.0	
	Sumi alfa	0.6-0.8	2-chi may oxiri
	Kinmiks-5%	0.3	
	Shaman-35%	2.0-4.0	3-chi iyul boshi
	Bi-58-40%	0.8-2.0	

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi
huzuridagi Davlat kimyo komissiyasi tomonidan olma qurtiga
qarshi kurashish uchun quyidagi insektisidlar tavsiya etilgan.
(ro'yxat 2008 y).

4-jadval

№	Preparat nomi	Ta'sir etuvchi moddasi	Sarflash me'yorlari l/ga	Qaysi zararkunandaga qarshi ishlatiladi	Ishlatish muddati	Bir Mavsum da nechamarta ishlatiladi
1	Avaunt	Findokso karb	0.35	Olma qurti	O'simlikni o'suv davri	2
2	Arrivo	Sipermetrin	0.2-0.3	Olma qurti	O'simlikni o'suv davri	3
3	Benzofosfat	Fazalon	2.3-4.6	Olma qurti	O'simlikni o'suv davri	2
4	Buldok	Betosellurin	0.08-0.1	Olma qurti	O'simlikni o'suv davri	2

5	Trizm	Xlorfeno pid	0.25- 0.4	Olma qurti	O'simlikn i o'suv davri	1
6	Danodim	Dimetil	0.8- 2.0	Olma qurti	O'simlikn i o'suv davri	2
7	Donitol	Fenpropo trin	1.5	Olma qurti	O'simlikn i o'suv davri	1
8	Desis	Deltametr in	0.5- 1.0	Olma qurti	O'simlikn i o'suv davri	2
9	Kolipso	Tioklopri d	0.1- 0.5	Olma qurti	O'simlikn i o'suv davri	2
10	Karate	Lyambda sigolotrin	0.4- 0.8	Olma qurti	O'simlikn i o'suv davri	2
11	Karbofos	Molation	3.0	Olma qurti	O'simlikn i o'suv davri	2
12	Kinmiks	Betasiper metrin	0.3	Olma qurti	O'simlikn i o'suv davri	2
13	Fometrin	Xlorpirif os	0.25- 0.4	Olma qurti	O'simlikn i o'suv davri	2

14	Emtok	Amiros	3.0-6.0	Olma qurti	O'simlikni o'suv davri	2
15	Nurel-D	Sipermetrin va xlorpirifos	1.0-1.5	Olma qurti	O'simlikni o'suv davri	2
16	Summi-alfa	Esfekvopriat	0.5-1.0	Olma qurti	O'simlikni o'suv davri	1

3.1. Olma qurtiga qarshi insektisidlarning biologik (texnik) samaradorligi (O'HQITI ma'lumoti 2008 y) toksikologik laboratoriya ma'lumotlari (Xo'jayev 2009).

5-jadval

T-r	Preparat	Qo'llash me'yorl/ga	Biologik samaradorligi, %	Rezistentlik darajasi marta
1	Korbofos	3.0	68	16-20
2	Desis	0.8	64	12-14
3	Benzofosfat	3.0	56	40-50
4	Buldok	0.1	74	8-10
5	Danadim	1.5	45	60-80
6	Karate	0.7	74	15-17
7	Arrivo	0.3	70	8-10
8	Sumi-alfa	0.8	78	8-10
9	Nurell-D	1.3	86	2-6
10	Dimilin	1.0	100	-

Ammo amalda ruxsat etilgan insektisidlar orasida ham o'z samaradorligi bo'yicha farq qilinadiganlari ko'plab uchraydi. Sh.Xo'jayev ma'lumoticha (2009) sintetik piretroidlarga zararkunanda 2-3 yil ichida rezistentlik hosil qiladi va keyingi yillarda ularning samarasi keskin pasayib ketadi. Masalan Desisga nisbatan olma qurtining rezistentligi 12-14 marta, karbofosga nisbatan 40-50 martaga ortib ketgan.

Keyingi yillarda yangi sinf insektisidlari neonikotinoidlar ixtiro qilindi va ularning vakili dimilin keng ko'lamda sinovdan o'tkazib, O'zbekiston Respublikada qishloq xo'jaligida ishlatish uchun ruxsat berildi. Buning afzalligi shuki 1,0 l/ga me'yorida ishlatilganda barcha hasharot va kanalarning po'st tashlashini yoki individual rivojlanishini to'xtatib qo'yadi, ya'ni fiziologik ta'sir qilib, organizmni o'ldiradi, ta'sir etish muddati 40-60 kun.

IV.BOB.

Hayot faoliyati xavfsizligi va ekologik muammolar

1. QXI da ayollar va o'smirlar mehnati ta'qiqlangan ishlar.

Ayollar mehnatini muhofaza qilishda juda ko'p muammolar bo'lib , uning biologik va sosial ahamiyati muhimdir. Shuning uchun ayollar mehnati, mehnat kodeksining (224-238-moddalar) da himoyalanaadi.

Ayollar mehnatini ta'qiqlaydigan noqulay mehnat sharoitlardagi ishlarning ro'yxati va yuklarni ko'tarishda hamda qo'zg'atishda me'yorlashtirilgan yuklarning sanitariya me'yorlari "O'zbekiston Respublikasining mehnat kodeksiga asoslanib mehnat muhofazasi bo'yicha me'yoriy hujjatlar to'plami 1996 " da keltirilgan.

Bolasi o'n to'rt yoshga to'lmagan o'n olti yoshga to'lmagan (nogiron bolasi) bo'lgan homiladar ayollarni ularning choziligisiz tungi, ish vaqtidan tashqari ishlarga dam olish kunlaridagi ishlarga jalb qilishga va xizmat safariga yuborishga yo'l qo'yilmaydi shu bilan birga bolasi uch yoshga to'lmagan homiladan ayollarni ona va bolaning sog'lig'i uchun xavf tug'dirmasligini tasdiqlovchi tibbiy xulosa bo'lgan taqdirdagina tungi ishlarga qo'yiladi (228-modda).

Ayollarni onalik vazifalaridan foydalanish maqsadida quyidagi moddalarda bir qancha imtiyozlar beriladi.

Homilador va bola tuqqan ayollarga ularning hoxishiga ko'ra, homiladorlik va tug'ish ta'tilidan oldin yoki undan keyin yoxud bolani parvarishlash ta'tildan so'ng yillik ta'tillar veriladi. Ayollarga tuqqanga qadar 70 kalendar kun va tuqqanidan keyin

56 kalendar kun muddat bilan homiladorlik va tug'ish ta'tillari berilib, davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha nafaqa to'lanadi.

4.1. Olma ishlab chiqarishda kimyoviy moddalardan foydalanishda xavfsizlik choralari

